



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:
№ BD-Bakalavr
2021_yil _____
" " "

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
R.I.Xalmuradov
2021_yil _____



FALSAFA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	900000 –Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910000- Sog'liqni saqlash 920000- ijtimoiy ta'minot
Ta'lim yo'nalishi:	barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun

Samarqand-2021

Fan/modul kodi FM3006		O'quv yili 2023-2024	Semestr 5	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
2.	Falsafa	90		90	180

1. Faning mazmuni
Fan o'qitishdan maqsad – yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid eng umumiy qonuniyatlarga oid falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. "Falsafa" fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli

Falsafa atamasining kelib chiqishi. Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari. Dunyoqarashning tuzilishi. Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Dunyoni idrok etishda falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos roli.

Fan-ilmiy dunyoqarash shakli. Falsafa fanining predmeti, funksiyalari Falsafada milliylik va umuminsoniylik. Xozirgi davrda milliy falsafani rivojlantirish muammolari, ularning xalqaro aloqalarni tashkil etishdagi ahamiyati

Falsafa tushunchasining kelib chiqishi. Falsafa fanining predmeti, funksiyalari Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mif - dastlabki dunyoqarash tuzilishi. Mifologik va diniy dunyoqarashning o'ziga xos aloqasi va farqi. Diniy dunyoqarashning shakllanishi. Dinning asosiy funksiyalari. Falsafa va dunyoqarash. Dunyoning diniy, ilmiy va falsafiy mavridi. Dunyoni idrok etishda falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos roli.

Falsafa o'ziga xos bilim shakli va ma'naviy faoliyat sifatida. Falsafaning asosiy yo'nalishlari - ontologiya, gnosologiya, falsafiy antropologiya, mantiq, etika, estetika, ijtimoiy falsafa va axloqologiya haqida qisqacha tavsif. Falsafaning ta'rif va tarmoqlarining ko'pincha natijasi.

Fan ilmiy dunyoqarash shakli. Fanning funksiyalari va taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Falsafa va fanning o'zaro munosibligi, farqi. Falsafa fanining predmeti funksiyalari. Hozirgi davrda milliy falsafani rivojlantirish va xalqaro aloqalarni tashkil etishning ahamiyati.

Falsafa tafakkur taraqqiyoti qonunlari tizimi sifatida. Tafakkur madaniyati va sivilizatsion taraqqiyotning o'zaro aloqadorlik qonuniyati va tamoyillari.

2-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: SHarq va G'arb falsafasi

Qadimgi SHarqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi. Misr va Bobil falsafiy maktablari. Qadimgi Hindistonda falsafiy maktablar. Markaziy Osiyoda "Avesto" ta'limotidagi falsafiy fikrlar. Konfutsiy va Lao Szi ta'limoti.

Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktabi. Milet maktabi, uning Misr-Bobil, Hind falsafay ildizlari bilan bog'liqlik xususiyatlari. Suqrotgacha bo'lgan falsafiy tizim va Suqrot maktablari. Antik falsafada Demokrit, Geraklit, Aflotun va Aristotel oqimlari xususiyatlari. Ellinizm davri.

Ilk o'rta asr Sharq falsafasi antik falsafa va islom ilohiyotshunosligi falsafasini bog'lovchi tizim sifatida. Sharq panteizmi va peripatetizmi Sharq mutafakkirlari (Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino)ning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ahloqiy ta'limotlari. Ilk o'rta asrda tasavvuf va islom ilohiyotshunoslik maktablari ta'limotlari. O'rta asr Sharq gumanizmi.

Yangi va eng yangi davr falsafasida milliy ozodlik xarakatlari ta'limotlari, ustivor yo'nalishlari. Yangi davr Sharq va G'arb falsafasidagi asosiy muammolar.

3- mavzu. Borliq,ontologiya va metafizika

Borliq tushunchasining tahlili. Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq va mavjudlik. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Borliq atributlari: harakat, makon va zamon. Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borlig'i, ijtimoiy borliq, ma'naviy borliq, inson borlig'i, virtual borliq. Ontologiya borliq haqidagi ta'limot. Falsafiy ontologiyaning xususiyatlari va ta'limotlari. Aflotun va Aristotel falsafasida borliq muammosi. Aristotel metafizikasida borliq tasnifi. Metafizika ontologik ta'limot va metod sifatida. Mavjudlikning ontologik strukturalari. Borliq kategoriyalari.

Energiya borliq shakli. Substansiya va substrat tushunchasi. Materiya tushunchasi va uning tashkil topish darajalari. Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. In'ikos nazariyasi va uning darajalari, shakllari. Dunyoning birligi chekliligi va cheksizligi.

Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar. Kengayuvchi olam gipotezasi. Qizil siljish va torston maydonlar. Universal kosmik galogamma. Harakat, makon va vaqt - materiyaning yashash sharti. Abadiy harakat, o'zgarish va harakatsizlikning o'zaro nisbati. Harakatning tiplari va shakllari. Harakat mutlaqligi va sokinlikning nisbiyligi. Makon va vaqt borliqligining

fundamental shakllari. Falsafa tarixida makon va vaqtga substansional va relyasion yondashuvlar. Ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqtda tarix vaqt va davr ruhining mutanosibligi. Individual vaqt inson mavjudlik vaqti sifatida.

4. Falsafada ong muammosi. Bilish nazariyasi va yo'nalishlari

Ong ontologik muammo sifatida. Falsafada jon, mushohada, ong, aql, ruh masalalari. Aristotel "Jon haqida". Ruh va jon tushunchasi SHarq falsafasi an'analari. Ibn Sino olami kubro va olami sug'ro haqida, unda kayhoniy ruh hodisasi. Nemis klassik falsafasida dunyoviy ruh muammosi. Transsendental aql va ruh tushunchasi. Ong fenomenlari. Ong mavjudligi dalillari va muammolari. Antroposotsiogenez. Ong mohiyati haqidagi asosiy konsepsiyalar. Ong va ong'sizlik muammosi. Ong strukturasi. SHarq falsafasida ong muammosi. Postmodernistik falsafada ong muammosi. Ong va o'zlikni anglash. Milliy ong. Tafakkur va til. Millat va til. O'zbek tili va o'zbek xalqi tarixiy xotirasining funksional aloqasi.

Bilish nazariyasining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari. Gnoseologiyaning mazmuni va mohiyati. Empirizm, ratsionalizm va epistemologiyaning uyg'unligi. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Noilmiy bilim shakllari. Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari. Ong-tafakkur va borliqning birligi. Ong va ijod. Tafakkur uslubining asosiy jihatlari. Tafakkur uslubini inersiyasi tafakkurning xossasi sifatida. Hissiy, empirik va ratsional bilishning birligi va farqlari. Bilishda haqiqat va amaliyot uyg'unligi. Haqiqatning asosiy shakllari va konsepsiyalari. Haqiqatni anglashda isbotlash va rad etish emotsiya, ideal, iroda, ishonch va shubhaning roli. Amaliyotning tarkibiy qismlari

5-mavzu. Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari

Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari. Metodlarning tasnifi. Falsafa metodlari. Fan metodlari: umumilmiy, xususiy ilmiy va fanlararo tadqiqot metodlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyati. Hozirgi zamon metodologiyasi.

Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasi. SHakllanish, o'zgarish va rivojlanish tushunchalari. Barqarorlikning o'zgaruvchanligi. Barqarorlik va beqarorlik nisbati. Rivojlanishning tiplari. Ochiq tizimlarning evolyusiyasi. Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari. Bazis va lokal qonunlar. Falsafaning asosiy qonunlari. Qarama-qarshilik va ziddiyat qonuni. Miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Inkorni-inkor qonuni va vorisiylik. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari. Fan va falsafa kategoriyalarining tasnifi. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning tasnifi

6-mavzu. Jamiyat va tarix falsafasi. Qadriyatlar.

Jamiyat va tarixning o'zgaruvchanligining falsafiy jihatlari. Tarix falsafasining tuzilishi va funksiyalari. Tarixga formatson va sivilizatsion yondashuvlar. Tarixda shaxsning roli. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida. Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o'рни va roli. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida nodavlat tashkilotlarning turgan o'рни.

Sivilizatsiya tushunchasining tahlili va turli yondashuvlar tasnifi. Sivilizatsiya rivojining asosiy bosqichlari. "Madaniyat" tushunchasi, uning mohiyati, strukturasi va funksiyalari SHarq va G'arb madaniyatlarining o'zaro birlig ta'siri. Jahon sivilizatsiyasi tarixida SHarq madaniyatining o'рни va uni o'rganishning ahamiyati.

Qadriyat tushunchasining tavsifi va mohiyati. Moddiy va ma'naviy qadriyatlarining o'zaro aloqadorligi va turlari. Ehtiyojlar va qadriyatlar mutanosibligi. Qadrlilik va qadrsizlanish, ularning ijtimoiy xarakteri.

O'zbek xalqi milliy va diniy qadriyatlarida oila masalasi. Avestoda oila va farzand tarbiyasi qadriyatlari. Burxoniddin Marg'inoniy "Hidoya" asari islom hanafiya mazhabi ta'limotining oila haqidagi musulmon huquqshunosligi manbai sifatida. Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida inson kamoloti, farzand tarbiyasi haqidagi ta'limotlar.

Zamonaviy O'zbekistonda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy kamolotida nikoh va oila haqidagi milliy axloqiy qadriyatlarining o'рни. YOshlar psixologiyasida oilaga munosabatning ma'naviy, axloqiy tamoyillarini shakllantirish. Ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta'siri. Oilaviy munosabatlarga noan'anaviy yondashuvlarning oqibatlari. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'рни. Oila shartnomasini tuzishning axloqiy jihatlari.

7-mavzu. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)

Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari. Jon va ongning tabiati, strukturasi va funksiyalari. Ongsizlikning tabiati. Antrop tamoyil - inson borlig'iga oid zamonaviy konsepsiya.

SHarq va G'arb falsafasida inson muammosi. Falsafiy antropologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, predmeti va vazifalari. Insonga introvertiv va ekstrovertiv yondashuvlar, biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari. Passionar, sub passionar va muvofiq odamlar haqidagi ta'limot. Hayotning mazmuni va unda insonning vazifasi. Hayotni tark etish bosqichlari. Hayot va o'lim muammosi. Suitsid va parasuitsidning oldini olishda tarbiyaning roli. Inson borlig'ida o'zlikni anglashning namoyon bo'lishi.

Inson hayotining maqsadi falsafasi. Erkinlik va mas'uliyat tushunchasi. Inson borlig'i ma'nosi va mohiyati. Inson borlig'ida faoliyatining tuzilishi va atributlari. Inson faoliyatini tartibga solish mexanizmlari va uning ahamiyati. Faoliyatni tashkil qilishda huquq va axloq uyg'unligi.

8-mavzu. O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy, g'oyaviy asoslari

Korruptsiya shakllanishining tarixi. BMT Kodeksida korruptsiyaga munosabat. Korruptsiya - global muammo sifatida.

Korruptsiya tushunchasining mazmun mohiyati va namoyon bo'lish xususiyatlari. Korruptsiyaga qarshi kurashishda jahon tajribasi. Korruptsiyaga qarshi kurashda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Korruptsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratining roli.

O'zbekistonda korruptsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, korruptsiyaga qarshi kurashning ahamiyati. O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashishning

iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy - huquqiy mexanizmlari.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"

2019-yil

27-maydagi

PF-5729-son Farmoni.

9-mavzu. Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlar. Innovatsion texnologiyalar.

Globallashuv – yangi falsafiy mavzu. Globallashuv hodisasi va globalistika. Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Global muammolarning turli darajalari. 2017-2021 yillardagi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida global muammolarning tavsifi. Hozirgi davrning asosiy global muammolarning tasnifi. Global muammolarni hal qilishda falsafaning roli. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi. Global muammolarni hal qilishda xalqaro kuchlar birlashuvi; umumiy va xususiy manfaatlar. Global jarayonlarni bashorat qilishning ahamiyati. Bashoratning turlari va metodlari. Kelajakni bashorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekistonda innovatsion rivojlanish strategiyasi xususiyatlari. Texnika va texnologiya tushunchalarining mohiyati. Texnologik taraqqiyotning istiqbollari. Nanotexnologiyalar va biologik identifikatsiya texnologiyalarining ijtimoiy jarayonlarga ta'siri. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi virtual muloqotning ijobiy va salbiy jihatlar. Sun'iy intellekt tushunchasi va uning tahlili. Texnologiya sivilizatsiyada til va kommunikatsiya dialektikasi.

10-mavzu. Mantiq ilmining predmeti va axborotni tahlil qilishdagi ahamiyati

Mantiq ilmining predmeti va fanlar tizimidagi o'rni. Tafakkur shakllari: tushuncha, mulohaza, xulosa chiqarish. Tushunchalarning aniq mazmunga ega bo'lishi kundalik va ilmiy axborotlarning muhim shartidir. Axborotni tizimlashtirish va aniqlashda tushunchalarni ta'riflash va bo'lish mantiqiy amaldan foydalanishning turlari va qoidalar. Axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va uzatishda mulohazalarning taxlili. Mulohazalarning chinlik qiymatiga ko'ra turlari: chin, yolg'on, qisman chin, qisman yolg'on, to'g'ri, noto'g'ri, shubhali fikrlar. Mulohazalarning chin bo'lish shartlari. Axborotni aniqlashtirish: savol va javob. Axborotni umumlashtirish: xulosa chiqarishning mohiyati va tuzilishi. Hulosa chiqarish turlari: deduksiya, induksiya va analogiya. Axborotning ishonchilik darajasini oshirishda mantiqiy isbotlash va rad etishdan foydalanish usullari. Axborotlarni argumentlash. Argumentlashda uchraydigan xatolar. Axborotlarni qabul qilishda eng umumiy mantiqiy qonunlar: Ayniyat qonuni, Nozidlik va Uchinchisi istisno qonuni, Etarli asos qonunlarining amal qilishi.

11-mavzu: Dinshunoslik faniga kirish.

Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari, fanning falsafa, tarix, psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, arxeologiya kabi fanlar bilan

bog'liqligi. Din va dinshunoslik atamalarining mazmuni. Dinshunoslik fanining vujudga kelishi tarixi va tadrijiy taraqqiyoti. Dinlar tarixi SHarq imrlarining uzviy bo'lagi sifatida.

Din ijtimoiy hodisa sifatida. Dinning paydo bo'lishi masalasi. Dinlar tasnifi. Diniy ong asoslarining shakllanishi. Totemizm. Animizm. SHamanizm (afsungarlik). Fetishizm. Ibtidoiy mifologiya. Insoniyatning dastlabki madaniyat o'choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma xilligi. Din e'tiqod sifatida. Din va qonunning o'zaro munosabatlari. Dinga berilgan ta'riflar. Dinshunoslik sohalari. Dinning jamiyatdagi vazifalar. Dinga sotsiologik nutqai nazardan yondashuv. Dinning ijtimoiy vazifalari: kompensatorlik, integratorlik, regulyatorlik, legitimlovchilik, dinning falsafiy va nazariy jihatlar. Diniy tafakkurning shahsiy yoki ijtimoiy ildizlari.

12-mavzu: Milliy dinlar

Milliy dinlar. Zardushtiylik dini. "Avesto" zardushtiylikning asosiy manbai va muqaddas kitobi. Ko'pxudolikdan yakxudolikka o'tish. Zardushtiylikning diniy ta'limoti. Zardusht tomonidan Markaziy Osiyo qadimiy dinining isloh etilishi, Axuramazda, Axriman. "Avesto"ning tarkibiy qismlari Videvat, Yasna, Vispart. Yasht. Yahudiylik. Vujudga kelishi va ta'limoti. Abara evrey yaxudiy tushunchalari. Yaxudiylik manbalari: Tavrot (Tora) va Talmud. YAHudiy marosimlari va bayramlari. YAHudiylikdagi oqimlar saduqiylar, farziylar, esseylar. Massonizm va sionizm. YAHudiylar O'rta Osiyoda. Qadimgi Hindiston dinlari. Vedizm, Braxmanizm. Veda va veda dinlari. Vedalardagi afsonaviy xudolar: Indra, Varuna, Mitra, Dyaus, Adita, Agnyu, Vishnu, Krishna, Braxmanlik, Braxmanlik ta'limoti. Braxmanlik ta'limotida kastalar. Hinduiylik. Hindistondagi kasta tuzumini saqlab qolish uchun bo'lgan harakat. Braxmanlik bilan buddizm o'rtasidagi kurash. Braxmanlikda tan olingan asosiy uch xudo: 1) Braxma; 2) Vishnu; 3) SHiva. Hinduiylik ta'limoti. Hinduiylikdagi jannat va do'xax xaqidagi tushunchalar. Jaynizm dini tarixiga yondashuvlar. Sikxizm diniy ta'limotining yaratilishi. Sikxizm Guru-ustozga nisbatan munosabat. Xitoy va Yapon dinlari. Konfutsiychilik, daosizm, sintoizm.

13-mavzu. Jahon dinlari

Buddaviylik. Buddaviylik asoschisining shaxsi. Buddaviylik to'rt haqiqat. Buddaviylik ta'limoti. Buddaviylik manbalari. Buddaviylik g'oyalarning boshqa dinlarga ta'siri. Axloqiy qadriyatlarining ustuvorligi. YOzma manbalar. Buddaviylikning maxayana, xinayana, lamanizm va boshqa oqimlari. Uning mintaqaviy shakllari. Xozirgi zamonda buddaviylik.

Xristianlik. Iso Masih (Iisus Xristos) shahsi va hayotiga doir ilmiy bahslar. YAHudiylik (iudaizm) doirasida ilk xristian jamoasi. Xristianlik ta'limoti. Ota xudo, o'g'il xudo, muqaddas Ruh. Asosiy aqida va amallar. Xristianlikdagi marosim va bayramlar. Xristianlik manbalari Bibliya, Injil (Evangeliya). Xristianlikning O'rta Osiyoga kirib kelishi. Pravoslav yo'nalishining O'zbekiston xududida tarqalishi. O'zbekistonda xristianlik

tarixidan. Pravoslav, katolik va protestant yo'nalishlari o'rtasidagi farqli jihatlari. Islom. Islom ta'limoti. Islom manbalari. Qur'oni karimning nozil bo'lish tarixi. Qur'on suralarining xronologik tartibi. Makkiy va madaniy suralar. Qur'onning jamlanishi. Usmon Mushafi. Hadis. Sunna. Hadis turlari. Muaddislar. "Al jome as-sahih". Islom falsafasi. Islom va dunyoviy-ma'rifiy davlat. Islom ma'rifati dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligi. "Ixxon us-safo" maktabining falsafiy qarashlari.

14-mavzu. O'zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati

Dunyoviy davlat tushunchasi. Din va dunyoviy davlat munosabatlari muammolari. Dinning ijtimoiylashuvi tushunchasi. Dinning siyosiylashuvi tushunchasi. An'anaviy jamiyatda diniy dunyoqarashning milliy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy xususiyatlari. O'zbekistonda davlat va din munosabatlarining an'anaviy va o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasida islom omili. Zamonaviy global taraqqiyotda din va siyosat masalalari, ularning O'zbekiston rivojiga ijobiy va salbiy ta'siri. Milliy davlatchilik tamoyillari va unda diniylik hamda dunyoviylikning o'zaro mutanosibligi masalasi. Dinning siyosiylashuv jarayonining tashqi va ichki omillari. Davlat va din o'zaro munosabatlarining zamonaviy modellari. O'zbekistonda vijdon erkinligining huquqiy asoslari. O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar.

15-mavzu. Diniy ekstremizm va terrorizm.

Kibermakon va zamonaviy diniy jarayonlar

XIX-XX asrlarda yirik dinlar doirasida yuzaga kelgan diniy tashkilotlar, ularning e'tiqodi va faoliyati, jamiyatga ta'siri. Mutaassiblik, ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm, xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm: tarix va voqelik. Terrorizmining davlatlar taraqqiyotiga tahdidi, millatlararo munosabatlar va diniy bag'rikenglikka tahdidi. Dunyo bo'yicha amalga oshirilgan yirik terrorchilik amaliyotlari. O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy asoslari.

Kibermakon zamonaviy diniy jarayonlarning ontologik makoni sifatida. Kibermakon tushunchasi. Kibermakon falsafiy muammo sifatida. Kibermakon va jamiyat. Kibermakonda va din. Ijtimoiy tarmoqlar tahdidlari. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'siri. Kiberterrorchilik. Elektron dasturlar tahdidlari. Virtual o'yinlarning yoshlar ongiga ta'siri.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. «Falsafa» fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli
2. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: SHarq falsafasi va G'arb falsafasi
3. Borliq – falsafaning fundamental kategoriyasi
4. Falsafada ong muammosi. Bilish nazariyasi va yo'nalishlari
5. Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari tizimi
6. Jamiyat va tarix falsafasi. Qadriyatlar
7. Falsafiy antropologiya(inson falsafasi)
8. O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy-g'oyaviy asoslari
9. Globallashuv va global muammolarining falsafiy jihatlari. Innovatsion texnologiyalar.
10. Mantiq ilmining predmeti va axborotni tahlil qilishdagi ahamiyati
11. Dinshunoslik faniga kirish
12. Milliy dinlar
13. Jahon dinlari
14. O'zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati
15. Diniy ekstremizm va terrorizm. Kibermakon va zamonaviy diniy jarayonlar

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Falsafiy dunyoqarashning o'z-o'zini anglashdagi roli.
2. Dunyoning hozirgi zamon ilmiy manzarasining tahlilida falsafiy tafakkur
3. Insoning ma'naviy kamolotida falsafiy dunyoqarashning roli
4. Fan ilmiy dunyoqarash shakli
5. Bilim inson ma'naviy kamoloti omili.
6. Tarix falsafasi va falsafa tarixi uyg'unligi.
7. Inson, uning huquq va ekrinliklari oliy qadriyat.
8. Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishning zaruriyati.
9. Ilmiy va ijtimoiy bashoratning o'zaro aloqadorligi.
10. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning uyg'unligi.
11. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi.
12. Diniy madaniy an'analarining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.
13. Sog'liq oliy qadriyat.
14. Oila va oilaviy qadriyatlar ma'naviy madaniyatning bosh omili.
15. SHaxs ma'naviyatining shakllanishiga ijtimoiy muhit va davr ruhining ta'siri.
16. SHarq va G'arb falsafasida inson masalasi.
17. Tabiatni o'rganishga oid qarashlar tarixi.
18. Rim klubi faoliyatining falsafiy tahlili.
19. Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy tizimi.

	20. Ta'lim global muammo sifatida. 21. Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi roli. 22. Xukm tafakkur shakli sifatida. 23. Hukmning tarkibi va xususiyatlari. 24. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. 25. Xulosa chiqarishning tuzilishi. 26. Xulosa chiqarish turlari. 27. Islomning vujudga kelishi va tarqalishi. 28. Qur'oni karim SHarq xalqlarining diniy, ilmiy va ma'naviy merosi sifatida. 29. Hurfiylik va ma'rifatparvarlik. 30. Moturidiy maktabi ta'limotida inson erki va taqdir masalalari. 31. Vijdon va e'tiqod erkinligi haqida. 32. O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar. 33. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik. 34. Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari. 35. Ilmiy muammolarning vujudga kelishi va mantiqiy tuzilishi, ularning turlari va hal qilinishi. 36. Oilaning psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muhitining farzand tarbiyasiga ta'siri. 37. Oila nomusi va sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas'uliyati. 38. Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - Falsafiy tafakkur xususiyati va qonuniyatlari, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, mantiqiy tafakkur madaniyatining inson hayot va fikrlash tarzining takomillashtirishdagi roli va ahamiyati, SHarq va G'arb falsafasining etakchi g'oyalari, ilmiy va ma'naviy merosi, dunyoning yagonaligi qonuniyati va unda koinot hamda inson borlig'ining aloqadorligi, kasbiy faoliyatda falsafaning metodologik ahamiyati, global jarayonlarda analitik va sintetik, mantiqiy tafakkurning roli, O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati haqida, dinshunoslik fanining ob'ekti, predmeti, maqsad, vazifa va tushunchalari; dinshunoslikning alohida fan sifatida paydo bo'lishi, uning rivojlanish tarixi, turli dinshunoslik maktablari, olimlarning dinshunoslik bo'yicha ilgari surgan konsepsiyalari, dinlarni o'rganishdagi uslublar, dinning umuminsoniy qadriyatlarini saqlash va insoniyat tamadduni rivojida o'zini o'zining qadriyatlariga bo'lishi; - fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, rivojlanish bosqichlari va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'zini, Qadimgi va O'rta asrlar SHarq va G'arb falsafasi, YAngi va Eng davr falsafasining xususiyatlari, ta'limot va g'oyalari, tabiat va jamiyatda

	yuz berayotgan jarayonlar falsafiy qonuniyatlari, tafakkur va borliq, substansiya va materiya muammosi, makon va vaqt, tabiat falsafasi va ekologiyasi, energiya, inson borlig'i, falsafa metod, qonun va kategoriyalari, rivojlanish va taraqqiyot falsafasi, haqiqatni anglashda nazariya va amaliyot birligi, bilish metodologiyasi, o'zbek milliy falsafasini va bu boradagi buyuk ajdodlarimizning merosi, insonning atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlar, globallashuv jarayonlari, dinning jamiyatdagi kompensatorlik, regulatorlik, kommunikativlik va legitimlovchilik funksiyalari, SHarq va G'arb dinshunoslik maktablari, milliy va jahon dinlarini o'rganishdagi yondoshuvlar haqidagi bilimlar yuzasidan <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>; falsafani o'rganish orqali jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini tushunish, ularga falsafiy, tizimli tafakkur nuqtai-nazaridan baho berish, jamiyat taraqqiyotiga oid axborotlarni to'plash, saqlash va ulardan foydalanish, o'zining kasbiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni analitik va sintetik fikrlash asosida qabul qilish, mushohadaviy tafakkurga asoslangan mustaqil qarorlar qabul qilish, yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, takomillashtirish va o'z mehnatini ilmiylik va bunyodkorlik asosida tizimli tashkil qilish, fikr va qarashlarini og'zaki va yozma ravishda adabiy til qoidalarini asosida konstruktiv mantiqiy ifoda etish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol javoblar); - guruhlarda ishlash - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish;
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari: Nazariy-metodologik: - Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. -53 b. - Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz

bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2017 -484 b.

3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. -28 b.

4. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston, 1996-2016.

5. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma'naviyat, 2016, -176 b.

Asosiy adabiyotlar:

1. Madaeva va boshq. Falsafa. –Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2019.

2. Q.Nazarov [va boshq.]. Falsafa asoslari [Matn]: o'quv qollanma / - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.

3. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida.-Toshkent: UFMJ, 2006.

4. Izzetova E., Po'latova D. Filsofiya. -Toshkent: SHarqshunoslik, 2012. 340-b

5. Pulatova D., Fayzixo'jaeva D. Mantiq (o'quv-qo'llanma) T.: «PREMIER PRINT». 2013.

6. Fayzixo'jaeva D. Mantiq: izohli lug'at. T.: «TAMADDUN» 2015.

7. SHaripov M., Fayzixo'jaeva D. Mantiq tarixi va nazariyasi darslik -- T.:Universitet, 2020

8. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma) / Mualliflar jamoasi. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti matbaa birlashmasi", 2013. – 320 b.

9. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2019. – 180 b.

10. J.Ya.Yaxshilikov,N.E.Muhammadiyev.Falsafa:Darslik.- Samarqand.2021.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. 100 mumtoz faylasuf. Toshkent: YAngi asr avlodi. ISBN: 978-9943-27-366-5. 2019.- 372 b.

2. Saifnazarov I.,Saifnazarova F. YOshlar va oila-Vatan tayanchi.-T.: "Ta'lim nashriyoti"MCJ, 2018. -132 b.

3. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati (siyosiy-falsafiy qirralari).Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.-352 b.

4. Ramatov J. Xayotga falsafiy nigoh. -Toshkent: "ITA-press", 2017, 380b.

5. Urfon Otajon. Notiqlik sanati-Sitseron. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. -80 b.

6. Allayorova S. Germenevika.O'quv qo'llanma.Toshkent,Extremum-press, 2017.-162 b.

7. Gunnar Skirbekk, Nils Gilge. A history of Western Thought. Scandinavian

8. University Press. 11 New Fetter Lane, London, EC4P 4EE.

2001. P-1-4

9. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. R – 341.

10. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P – 77. (P – 19)A.Fitrat. Tanlangan asarlar –T.: Ma'naviyat, 2010 -301 b.

11. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T.:YAngi asr avlodi, 2016.-318 b.

12. J. Rumi. Ichingdagi ichingdudur.-T.: YAngi asr avlodi, 2016.-272 b.

13. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon»-2015.-155 b.

14. Aristotel. Sochineniya V 4-x tomax. -M.: 1975. ch.1.

15. Asmus V. Antichnaya filsofiya. -M.: 1999.

16. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti –T.: YAngi asr avlodi, 2004.- 23 b.

17. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -160b. T.:»Star - Poligraf", 2010. -180 b.

19. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. - T.: Ma'naviyat, 2008. -560 b.

20. Madaeva SH. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.

21. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. -T.: Fan, 2009.

22. Musaeov F. Demokratik davlat qurishning falsafiy huquqiy asoslari. -T.: O'zbekiston, 2007.

23. Otamurodov S. Globallashuv va millat. - T.: YAngi asr avlodi, 2008.

24. Ochiliev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - T.: O'zbekiston, 2004.

25. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqol, 2009.

26. Plutarx. Saylanma. Z.A'lam va Urfon Otajon tajimasi. - T.: YAngi asr avlodi, 2006.

27. Soifnazarov I. Kurs leksiy po filosofii. - T.: TDIU, 2004.

28. Sirojiddinov I. Mirzo Ulug'bek dunyosi.-T.: «SHarq"-2015.108 b.

29. Qahhorova SH. Global ma'naviyat-globallashuvning g'oyaviy asosi.-T.:Tafakkur, 2009. -670 b.

30. Xayitov SH., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.

31. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.

32. O'zbekiston : dinlararo hamjihatlik – tinchlik garovi.-T.:2005.

Axborot manbalari (saytlar):

	1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali. 2. www.ziyo.net.uz – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali 3. www.faylasuf.uz- O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali 4. http://www.islam.ru-O‘zbekiston musulmonlar diniy idorasi portali
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2021 yil _____-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ullar: J.Ya.Yaxshilikov – SamDU, “Falsafa” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor A.A.Axmedov– SamDU, “Falsafa” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi M.S.Yusupov- SamDU, “Falsafa” kafedrasi assistenti
9.	Taqrizchilar: S.Karimov - SamDU, “Falsafa” kafedrasi professori, f.f.d. Sh.Negmatova –SamDu “Falsafa” kafedrasi, f.f.d.

Kafedra mudiri: **S. Karimov**

Fakultet kengashi raisi: **R.I. Mirzayev**



“Tasdiqlayman”

SamDU o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori

“ ” **A.S.Soleyev**
_____ 2021 yil

M.O`